

SINONIMLAR MAVZUSINI O'QITISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Rasulova Baxtiniso Raimovna

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

54-umumta'lim maktabining

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinonimlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ularning uslubiy bo'yoqdorligi, ijobiy va salbiy baholari hamda sinonimlar vositasida darsda turli metodlarni tadbiq etish borasida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Sinonimlar, ijobiy va salbiy baho, uslubiy bo'yoqdorlik, sinonimik qator, neytral so'z, metodik o'yinlar

Til benihoya muqaddas ne'mat, u inson deb atalmish mavjudotni shakllantirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomiliga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan sehrli bir tilsimdir go'yo. Shu bois, tilga ehtirom va e'tibor esa, dunyoda inson bolasi muhtamligining e'tirofidir. Bejiz emaski, xalqimiz tilga, xususan, o'zining ona tiliga muntazam muhabbat bilan qaragan, uni e'zozlab ardoqlagan, o'zbek tilining mukammalligi va betakror ohanglaridan faxr-u iftixor qilgan. Bugungi kunda o'zbek tili butun dunyodagi tillar qatori o'z o'rniga, obro' va maqomiga ega. Shu bilan birga bugun ona tilimiz imkoniyatlarini qay darajada namoyon eta olyapmiz degan haqli savol ham borki, u barchamizni o'ylantirishi tabiiy. O'zbek tilining boyligini yaxlit holda tasavvur etish uchun Alisher Navoiy asarlari dunyosiga bir nazar tashlashning o'zi kifoya. O'sha zamonda turkiy til deya nomlangan o'zbek tilimizning so'z boyligi, badiiy ijod uchun yaroqli ekanligi haqida maxsus nazariy asar "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini yozdi. Mavjud adabiy an'analarga yangiliklar kiritdi. Xalq ma'naviyati, ma'rifati va madaniyatining yuksalishida tilning muhim vosita ekanini, til bashariyat naslini o'tmish va zamon bilan bog'lovchi timsol ekani shoirning hamisha diqqat markazida bo'lgan.

Shuningdek, tilda mavjud birliklar, atamalar, tushunchalar borki, ular borasida qay darajada bilim va ko'nikmalarga egamiz. Quyida mana shu atamalardan biri sinonimlar xususida gaplashamiz.

Biz sinonimlardan nutqimizda ko'p bora foydalanamiz. Sinonimlarni nutq jarayonida qo'llash nutqni jozibador bo'lishini ta'minlaydi. Barcha tillarning asosini so'z tashkil etadi. Shuningdek, insonlarning nutqi ham aynan shu so'zlarning takrorlanmasligi uchun so'z boyligimiz ko'p bo'lishi va sinonim so'zlarni qo'llashimizga bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi. Sinonim so'zlar haqida so'z borar ekan, sinonimlar tilshunoslikda ideografik va stilistik turga ajratib o'rganiladi. Sinonimlar qator bir nechta so'zdan iborat bo'lishidan qat'iy nazar unda bir so'z asosiy shu sinonimik qatorni xarakterini belgilovchi so'z bo'ladi. Sinonimlik qatorining chegarasini belgilashda shuningdek, undagi har bir so'zning o'ziga xos xususiyatini ochishda shu qatordagi asosiy so'zni to'g'ri belgilash muhim rol o'ynaydi. Sinonimik qatorda ma'no hajmi boshqalarnikiga nisbatan keng bo'lgan so'z asosiy so'z sanaladi. Sinonimlar – ma'nosiga ko'ra yaqin, yozilishi va talaffuziga ko'ra har xil so'zlar hisoblanadi. Ularning atalishi yunoncha synonymus- shu nomdagi- so'zidan kelib chiqqan. Ular suhbat jarayonida fikrni aniqroq ifodalashga yordam beradi, nutqni yorqin va ifodali qiladi. Sinonimlar barcha tillarda mavjud. Bir sinonimik qatorga mansub so'zlarning o'zi ham uslubiy bo'yoqdorlikka ega. Shu bois, sinonimlar mavzusini o'tganda har bir so'zni uslubiy jihatiga alohida to'xtalib o'tish joiz. Sinonimlar yuzasidan o'qituvchi o'z mahoratini ishga solgan holda turlicha metodlar asosida mashqlar bajartirishi va didaktik o'yinlardan foydalanishi mumkin.

Sinonimlarning uslubiy bo'yoqdorligi

Ma'nodosh so'zlar ,ya'ni sinonimlar bitta umumiy ma'noni ifodalasada, lekin ular ma'no darajasi,ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslubga xosligi bilan o'zaro farqlanadi. Sinonimlarni differinsiyalash paytida, avvalo, ularning ekspressivstilistik ottenkalari, muhim farqlari ko'rinadi. Masalan, shivirlamoq, to'ng'illamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq so'zlari so'zlash umumiy ma'nosi orqali yuqoridagi so'zlar bilan birlashadi, ammo ulardan uslubiy bo'yoqdorligi bilan farq qiladi. Yoki yuz, aft, turq, ruxsor, bashara, oraz, uzor, chehra, bet kabi bir sinonimik qatorga mansub so'zlarni

oladigan bo'lsak, avvalo ularni ijobiy va salbiy bahoga egaligi bilan guruhlarga ajratamiz. Yuz, ruxsor, oraz, chehra, uzor, kabi so'zlar ijobiy bahoga, turq, bashara, aft, nusxa, bet kabi so'zlar esa salbiy bahoga egaligi bilan farqlanadi. Ushbu sinonimik qatordagi so'zlarni uslubiy bo'yoqdorligi jihatdan ham guruhlarga ajratamiz. Ruxsor, chehra, oraz,

uzor kabi so'zlar badiiy uslubga xosligi, bet, turq, bashara, aft kabi so'zlar so'zlashuv uslubiga, yuz so'zi neytral, ya'ni dominanta so'z hisoblanib, barcha uslublarga mansubligi bilan o'zaro farq qiladi. o'zaro umumiy ma'nosi bilan birlashib, stilistik ottenkasi – bo'yog'i va nutqda ishlatilish doirasi jihatidan farqlanadigan sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi.

“Leksik ma'nosi jihatidan farqlanadigan sinonimlar ideografik (ma'no)sinonimlardir. Masalan, kasal – umum ishlatadigan so'z, bemor (yozma uslubda ko'p qo'llanadi), xasta (eskirgan so'z), ammo betob, notob so'zlari yuqoridagilarga nisbatan stilistik va ideografik sinonimlardir. Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no darajasiga ko'ra farqlanadi. Masalan: yomg'irda plashim nam bo'ldi, yomg'irda plashim ho'l bo'ldi bog'lanishlarining keyingisida belgi darajasi kuchliroq. Nutqda fikr ottenkasi yoki emotsiyasiga, leksik, Grammatik yoki stilistik xarakteriga mos sinonim so'zlardan faqat bittasi tanlab olinadi va ishlatiladi. Shu sababdan sinonimik qatordagi so'zlar o'rtasidagi ba'zi farqlarni o'rganish stilistikaning vazifasi hisoblanadi.

Sinonimlar belgi, predmet, shaxs, voqeaning bir nechta nomlar bilan aytilishi hisoblanib, ular tilning eng nozik bo'yoqlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Sinonimlar gaplardagi nozik ma'nolarni ochib berishda ham keng qo'llanadi. Sinonimik hodisani frazeologizmlarda ham kuzatishimiz mumkin. Frazeologizmlarning ma'nodoshlik paradigmasida birlik ifoda semalari darajasiga ko'ra farqlanadi. Yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ipidan ignasigacha – miridan sirigacha, yer bilan yakson qilmoq – kulini ko'kka sovurmoq va h.k. Ma'nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo'yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi.

Ona tili darslarida sinonimlar mavzusini o'tish jarayonida bir nechta metodlardan, grammatik mashqlardan, interfaol usullardan foydalanish mumkin. Quyida ana shunday metodlarning ba'zilarini keltirib o'tamiz.

“Guruhlang” o'yini

Ushbu o'yinni barcha sinflar kesimida foydalanishimiz mumkin.

O'yinning maqsadi: o'quvchilarda sinonimlar qatorini to'g'ri belgilay olish ko'nikmalarini shakllantirish .

Jarayon: Ushbu o'yinning sharti berilgan ma'nodosh so'zlarni guruhlash. Bunda bir so'z turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi so'zlar beriladi. O'quvchilar bu so'zlarning ma'nosidan kelib chiqib ikki qatorga ajratishlari kerak bo'ladi.

Masalan: mamlakat, murod, yurt, niyat, vatan, maqsad, diyor, o'lka, orzu

Mamlakat	Maqsad
Yurt	Murod
Diyor	Niyat
O'lka	Orzu
Vatan	Istak

“Mosini qo'ying”metodi

Ushbu metod kichik guruhlarda ishlashda foydalanishda ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

Dastlab o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy

ketma –ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi. Bunda har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi “yadro” tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi. Har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmuasi

topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga, asosan, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish topshiriladi. O'yin yakunlangandan so'ng rasm orqasidagi harflar birlashtirilib so'z hosil qilinadi. O'quvchilar ushbu so'zning sinonimlarini topib aytishlari kerak bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tilda imkoniyatlar bisyor. Bu imkoniyatlardan darsda to'g'ri foydalanish, mavzuga mos metodlarni qo'llay bilish darsni samarali kechishiga zamin yaratadi. Yuqorida qayd etilgan sinonimlar mavzusi ham keng qamrovli bo'lib, barcha tillarda mavjud. Sinonimlar mavzusini o'tish jarayonida ushbu mavzuni antonym, omonimlar bilan ham bog'lash mumkin. Yoki darsni adabiyot fani bilan bog'liqlikda tashkil etish ham samarali usul sanaladi. Albatta bu uni qay tomondan o'rganishga bog'liq. Sinonimlarning stilistik xususiyatlari va imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni tilshunoslik bo'limlari doirasida o'rganish katta hajmli ilmiy ishlarni yuzaga chiqaradi.

Umumman olganda, sinonimlardan nutq jarayonida foydalanish so'zlar takrorini oldini olishga, nutqni ta'sirchan va jozibador bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzaqulov.T . Grammatika o'qitishning lingvistik asoslari, T:O'qituvchi, 1994
2. Ne'matov H, G'ulomov A. O'qituvchilar so'z boyligini oshirish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T: O'qituvchi, 1996
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-tom
4. Hojiyev. A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. O'qituvchi .1985
5. Internet saytlari.